https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Farida Fayzullayeva Yusufjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya kafedrasi

1-bosqich tayanch doktoranti

E-mail:fayzullayevafarida6@gmail.com

Tel: + 998 99 872 04 18

O'SMIRLARDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI NATIJASIDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Maqolada o'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasining namoyon bo'lishi, xarakter aksentuatsiyasi natijasida o'quvchilarda salbiy xulq-atvor paydo bo'lishi va uni bartaraf qilish borasidagi psixokorrektsion ishlar tashkil etish borasidagi fikrlar asosiy vazifa sifatida e'tirof etiladi. O'smirlarda xarakter aksentuatsiyasini o'rganish orqali o'quvchi yoshlarda mavjud salbiy xulq-atvor hamda salbiy xarakter xususiyatlarini paydo bo'lish sabab va omillarini o'rganish mumkin ular. Xarakter aksentuatsiyasi paydo bo'lishida oilaviy muhit, ijtimoiy muhitning ta'sirini o'rganish ishdan ko'zlangan asosiy maqsad sifatida e'tirof etiladi. Salbiy xulq-xulq atvorlarni bartaraf etish, korrektsiya etish orqali o'quvchilarni ta'lim jarayonlariga bo'lgan munosabatlarni ijobiy tomonga o'zgartirish borasida fikr-mulohazalar va tavsiyalar ushbu maqoladan o'rin olgan.

ФОРМИРОВАНИЕ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ КАК РЕЗУЛЬТАТ АКЦЕНТУАЦИИ ХАРАКТЕРА У ПОДРОСТКОВ

Аннотация:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

В статье признается проявление акцентуации характера в подростковом возрасте как основная задача, а также возникновение негативного поведения у учащихся в результате акцентуации характера и организация психокоррекционной работы по ее устранению. Изучая акцентуацию характера у подростков, можно исследовать причины и факторы, приводящие к негативному поведению и негативным чертам характера у молодых учащихся. Изучение влияния семейной и социальной среды на возникновение акцентуации характера признается основной целью работы. В статье представлены мнения и рекомендации по устранению негативного поведения и положительному изменению отношения учащихся к образовательному процессу через коррекцию.

FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR AS A RESULT OF CHARACTER ACCENTUATION IN ADOLESCENTS

Abstract:

The article recognizes the manifestation of character accentuation during adolescence as a primary task, as well as the emergence of negative behavior in students due to character accentuation and the organization of psycho-correctional work to address it. By studying character accentuation in adolescents, it is possible to investigate the causes and factors leading to negative behavior and negative character traits in young students. The study of the influence of family and social environments on the emergence of character accentuation is acknowledged as a key objective of the work. Suggestions and recommendations for eliminating negative behavior and positively changing students' attitudes towards the educational process through correction are included in this article.

Kirish(Introduction) O’quvchi yoshlarda salbiy xulq-atvorning mavjudligi oilada oilaviy munosabatlarda ota-onalar va farzandlar o’rtasida, ta’lim muassasalarida o’quvchi yoshlar va pedagog xodimlar o’rtasida nizoli

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

vaziyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ko'pincha salbiy xarakter xususiyatlar o'quvchi yoshlarning o'smirlik yosh davrida namoyon bo'la boshlaydi. O'smirlik davri shaxsning biologik, psixologik, ijtimoiy rivojlanishidagi muhim bosqichdir. Bu davrda o'smirlar ko'plab o'zgarishlarga duch keladilar: gormonal o'zgarishlar, mustaqil fikrlash jarayoni, ijtimoiy aloqalar. Ushbu o'zgarishlar o'smirlarda xarakter aksentuatsiyalarining ko'rinishini kuchaytirishi mumkin. O'smirlarda xarakter aksentuatsiyasi namoyon bo'lish sabab va omillarini o'rganish o'quvchilarda turli darajadagi xulqiy og'ishlarni, salbiy xarakter xususiyatlarini paydo bo'lish sabablarini o'rganishga yordam beradi. Statistik ma'lumotlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak bugingi kunda o'smirlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar ko'rsatkichi yuqori ekanligi guvohi bo'lishimiz mumkin. Misol uchun, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida sodir etilayotgan jinoyatlarda yoshlarning ulushi quyidagicha ko'rsatkichlarga ega. Rossiya federatsiyasida 33%, Germaniya hamda Angliyada 35%, Fransiyada 23%, Ispaniyada 85%, AQShda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar 32% ni tashkil etadi. Afsuski o'smir yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar soni ortganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Mamlakatimizda o'quvchi yoshlarning bilim olishlari uchun yaratib berilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlarga qaramay o'quvchilar orasida salbiy xulq-atvorga ega o'quvchilar ham uchrab, bu holat ta'lim jarayonlarida bir muncha qiyinchiliklarga yuzaga keltirib chiqarmoqda, jinyatga qo'l urayotgan o'quvchi yoshlar ham uchramoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev fevral oyida bo'lib o'tgan videoselektorda voyaga yetmagan o'quvchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 3500 ekanligi va ularning 2280 nafari maktab o'quvchilari ekanligini alohida e'tirof etib, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda "huquqbuzarlikka qarshi immunitet" yaratish bo'yicha tizim qilish zarurligini ta'kidlaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O’quvchi yoshlarda salbiy xulq-atvor shakllanishida o’smirlik davrida o’quvchilarda uchrovchi xarakter aksentuatsiyasi, o’smirlardagi anotomik, fiziologik o’zgarishlar asosiy sabablar sifatida e’tirof etiladi.

Xarakter aksentuatsiyasi o’rganish ishlari ko’plab olimlar tomonidan amalga oshirilgan. O’tgan asring 1968-yilida nemis psixiatri A.Leongard tomonidan “aksentuatsiya” tushunchasini fanga kiritdi. Ushbu atamani ma’nosini “me’yordan chetga chiqish”, individual xususiyatlarning haddan tashqari kuchayishi”deb ta’riflagan. Leongard tomonidan taklif taklif etilgan aksentuatsiyalarning birinchi ilmiy tasnifi shaxsdagi xarakter tipologiyasidir. K.Leongard qarashicha bu shaxsning atrofdagilar bilan munosabat va muloqot uslublarini baholashga asoslangan. Olim fikricha odamlarning 20-30 % qismida xarakterning ayrim xususiyatlarini haddan tashqari kuchli namoyon bo’lishini aniqlaydi. Ba’zi bir xarakter tipidagi odamlarda xarakter xususiyatlarining bunday kuchli namoyon bo’lishi kuchli ziddiyatlar, hissiy portlashlar bilan namoyon bo’lishini ta’kidlab o’tadi[1.2]

O’tgan asring 1968-yilida nemis psixiatri A.Leongard tomonidan “aksentuatsiya” tushunchasini fanga kiritdi. Ushbu atamani ma’nosini “me’yordan chetga chiqish”,” individual xususiyatlarning haddan tashqari kuchayishi”deb ta’riflagan. Leongard tomonidan taklif taklif etilgan aksentuatsiyalarning birinchi ilmiy tasnifi shaxsdagi xarakter tipologiyasidir. K.Leongard qarashicha bu shaxsning atrofdagilar bilan munosabat va muloqot uslublarini baholashga asoslangan. Olim fikricha odamlarning 20-30% qismida xarakterning ayrim xususiyatlarini haddan tashqari kuchli namoyon bo’lishini aniqlaydi. Ba’zi bir xarakter tipidagi odamlarda xarakter xususiyatlarining bunday kuchli namoyon bo’lishi kuchli ziddiyatlar, hissiy portlashlar bilan namoyon bo’lishini ta’kidlab o’tadi. Olim fikricha xarakter aksentuatsiyasi tasnifini 3 guruhga, turlari jihatdan 12 turga ajratadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1-guruh temperament guruhi deb nomlaydi va tabiiy tarbiya tarkibiga kiruvchi xarakter turlarini kirgizadi:gipertimik, distimik, affektivlabil, affektiv-yuksak, xavotirli va hissiy turlar.

2-guruh namoyishkorona xarakter aksentuatsiyasi turlarini olim ijtimoiy-shartli ta'lim bilan bog'laydi va pedatik, hayajonli turlarni kirgizadi.

3-guruh shaxsiy darajadagi qo'shimcha va introvert turlar kiritilgan[3]


Oradan biroz vaqt o'tib rus olimi A.Lichko tomonidan ham xarakter xususiyatlari bilan bog'liq o'rganilish ishlari olib boriladi. Olimning ishlari asosida Leongard hamda sovet psixiatri P.B.Gannushkinning ishlari yotadi. Olim asosan tadqiqotlarida xarakter aksentuatsiyasi va deviant xulq-atvorni aniqlashda o'smirlar va yigitlarni kuzatish orqali xulosalar qiladi. Uning xarakter aksentuatsiyasi bilan bog'liq tadqiqotlari faqatgina o'smirlik yosh davri bilan chegaralanib qolmagan. Gannushkin ta'kidlashicha, xarakter aksentuatsiyasini tushunish psixoterapiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Olim shaxsning aksentuatsiyasini inobatga olish orqali shaxsga nisbatan individual yondashishni rivojlantirish zarurligini ta'kidlab o'tgan. Gannushkinning xrakter aksentuatsiyasi haqidagi nazariyalari ruhiy salomatlik, psixologiya, psixologik yordam ko'rsatish, ruhiy salomatlik kabi sohalarda hali-hanuzgacha muhim ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda ham olimning fikrlari muhim ahamiyatga ega. [4.5.6]

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili(Literature review) O'smirlik davri bilan bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlar ko'plab olimlarda qiziqish uyg'otgan. Jumladan, yosh davrlari psixologiyasini o'rgangan (G.S.Abramova), o'smirlarda suidsidal xavf darajasini aniqlash (Sh.T.Xalilova), (Z.Nishanova, D.Abdullayeva, G.Baykunusova) shular jumlasidandir. O'smirlarda xarakter aksentuatsiyasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Hans Eysenck o'zining "Personality and Individual Differences" asarida shaxsiyatning turli jihatlari, shu jumladan xarakter aksentuatsiyasi haqida fikr yuritadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tadqiqot metodologiyasi(Research Methodology) Xarakter aksentuatsiyasi har bir insonga xos xususiyat bo'lib, individual xususiyatlarning keskinlashgan, o'tkirlashgan ko'rinishidir. O'smirlik davrida ko'pincha xarakter aksentuatsiyasi o'quvchilarning xulq-atvorida o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi. Tadqiqot uchun Shmishekning o'smirlarda xarakter aksentuatsiyasini aniqlash testi (negizida K.Leongardning shaxs aksentuatsiyasi kontsepsiyasi yotadi) asosiy metodika sifatida tanlab olindi. Test 10 shkala hamda ro'yxat shaklidagi 88 savoldan iborat.

Tahlil va natijalar(Analysis and results) Yuqoridagi adabiyotlarni o'rganish va o'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilish orqali xulosa qilishimiz mumkinki, xarakter aksentuatsiyasi o'smir yoshdagi o'quvchilar uchun xos xarater xususiyatidir. Osmirlik davri-shaxsning xarakteri va psixologik xususiyatlari shakllanayotgan muhim davr bo'lib, bu jarayonda aksentuatsiyalar ko'pincha o'zini namoyon qiladi. Ko'p hollarda xarakter aksentuatsiyasi natijasida o'smir o'quvchilarda salbiy xulq-atvor shakllanadi. Tadqiqot uchun 60 nafar 7-sinf o'quvchilari tanlab olindi.



https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Olingan foizlarning 100 dan ortiqligi barcha holatlarda 2 yoki 3 tadan xarakter aksentuatsiyasi mavjudligi bilan tushuntiriladi. Bitta sinaluvchida aksentuatsiyaning distim tipi ustunlik qiladi. Xarakter aksentuatsiyasining distim tipi uchun xarakterli xususiyat g‘amginlik bo‘lib, ularda pessimistik kayfiyat ustunlik qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra sinaluvchilarning 37.5 foizida ekzaltir tip namoyon bo‘ladi. Bu tipdagi insonlar xarakteriga xos bo‘lgan ijobiy xislatlar xushchaqchaqlik, bag‘rikenglik, hamdardlik qila olish bo‘lsa, salbiy xislatlar qatoriga vahimachilik, kayfiyatning vaziyatga qarab tez o‘zgaruvchanligi kabilarni kiritish mumkin. Biroq, sinaluvchilar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalarining dalolat berishicha, ularning xushchaqchaqligi va kulib turishi namoyishkorlik xususiyatiga ega.

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra yana 37.5 % sinaluvchilar uchun aksentuatsiyaning qo‘zg‘aluvchan tipi xos. Bu tipdagilar muloqotga kirisha olmasliklari, muloqotning verbal va noverbal turlari sust rivojlanganligi bilan xarakterlanadilar. Ko‘pincha ular qovog‘i soliq holda yuradilar, surbetlik va janjalkashlikka moyildirlar. Jamoada boshqalar bilan chiqisha olmaydilar. Emotsional qo‘zg‘aluvchanlik holatida serjahl, jizzaki, o‘z xulq-atvorini boshqara olmaydilar.

Sinaluvchilarning 25 foizida xavotirlanuvchanlik aksentuatsiyasi kuzatiladi. Ular muloqotga kirishimsiz, bo‘sh, o‘ziga ishonmaydigan, ma’yus kayfiyat ustunlik qiluvchilardir. Juda kam hollarda atrofdagilar bilan kelishmovchilikka boradilar va ular ko‘pincha hazil uchun manba bo‘lib xizmat qiladilar.

Metodika natijalariga ko'ra 12.5 % sinaluvchilar namoyishkor tipga mansubdirlar. Bu tipdagi insonlar o‘zlariga o'ta ishonuvchanligi va o‘zlarini katta tutishlari bilan atrofdagilarning g‘ashiga tegadilar. Muntazam ravishda o‘zlari kelishmovchiliklar keltirib chiqaradilar. Ular xarakteridagi salbiy jihatlar sifatida xudbinlik, laganbardorlik, maqtanchog‘lik, ishyoqmaslik, ikkiyuzlamachilik kabi xususiyatlar yaqqol ko`zga tashlanadi. Demak, oilada ota-onalarning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

farzandlariga bo‘lgan munosabati aynan destruktiv bo‘lgan o‘smirlar xarakterida xavotirlanuvchanlik, distim tip, ko‘zg‘aluvchanlik tiplariga xos bo‘lgan xususiyatlar namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Xulosa va takliflar(Conclusion/Recommendations) Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, insondagi xarakter xususiyatlari insondagi temperament xususiyatlaridan farqli ravishda tashqi muhit ta’sirida shakllanib boradi. Shu sababdan xarakter aksentuatsiyasi natijasida vujudga kelgan salbiy xususiyatlarni ham to’g’ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayonlari yordamida bartaraf etish mumkin. Ko’p hollarda ota-onalarda o’smirlik yoshidagi xarakter aksentuatsiyasi haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo’lmaydilar, farzandlaridagi salbiy xarakter xususiyatlarini injiqlik, qaysarlik sifatida qabul qiladilar va ko’p hollarda notog’ri tarbiyaviy jarayonlarni qo’llash holatlari ham kuzatilinadi. O’smir farzand tarbiyasidagi ota-onalar farzandlari bilan ko’proq muloqot jarayonlarini amalga oshirishlari, ko’proq suhbatlashishlari maqsadga muvofiq. Chunki ko’p hollarda o’smirlar mustaqil bo’lishga intiladilar, lekin tolaqonli ravishda bunga qodir bo’lmaydilar. Ko’pincha ilk qadam tashlashga jur’at yetishmaydi. Shunday vaziyatlarda ota-onalarning farzandlari bilan birgalikda ko’proq vaqt o’tkazishlari, ma’lum bir faoliyatlarni birgalikda amalga oshirishlari, suhbat jarayonlarini tashkil etishlari o’smirlar uchun muhim ahamiyatga egadir.

Ta’lim jarayonlarida o’smir o’quvchilar bilan ishlovchi pedagog xodimlarni o’quvchilardagi yosh davriga xos xarakter xususiyatlarni bilishlari o’quvchilar bilan ishlash jarayonlarini osonlashtiradi. Bu o’z navbatida ta’lim sifatini oshirishda, o’quvchilarni fan predmetlarini o’zlashtirish jarayonlarini ham ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi.

Pedagog xodimlarning bolalarning xarakter xususiyatlarini inobatga olgan holda, imkoniyat darajalarini inobatga olgan holda, psixologlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishlari salbiy xususiyatlarni bartaraf etishga yordam beradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O’smirlarda xarakter aksentuatsiyasini mavjudligini aniqlash, kerakli chora-tadbirlarni ko’rish orqali o’quvchi yoshlarda salbiy xususiyatlarni namoyon bo’lishini oldini olish, yoki o’smirlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo’lgan jinoyat, huquqbuzarliklarga bo’lgan moyillikni aniqlash mumkin. Bu albatta kelajakda mamlakatimizda amalga oshishi mumkin bo’lgan jinoyatlar, qoidabuzarliklar kabi holatlar kamayishiga sabab bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Umumiy psixologiya.Toshkent. B-383

2. . M.G.Davletshin, Sh.Do’stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To’ychieva, M. Djumabaeva. Yosh va pedagogik psixologiya.

3. E.G’oziyev. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent. .”Noshir” 2010. 178-179 b

4. Z.Nishonova. D.Abdullayeva. G.Baykunusova “O’smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorrektsiyasi”

5.A.Zokirova “Xarakter aksentuatsiyasi va uning tiplari” Journal of new century innovations. 2024.Fevruary 19-23.

6. I.M.Xakimova “Deviant xulq-atvor psixologiyasi” O’quv qo’llanma. Toshkent-2014.

7. www.library-uni.uz

8. www.uzedu.uz

9. www.dislib.uz

10. www.e-library.namdu.uz